

**ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG SHE'RIYATIDA SO'Z
MAS'ULIYATI VA TARJIMA FALSAFASI("HAVASKOR TARJIMONGA"
SHE'RI TAHLILI ASOSIDA)**

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O'zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: XX asr o'zbek adabiyoti gullab-yashnashida turli millat va madaniyat vakillarining ijodiy hamkorligi muhim o'rinni egallaydi. Bu jarayon davomida she'r nafaqat estetik vosita, balki millatlarni bir biri bilan bog'lab turuvchi ko'priksifatida ham beqiyos xizmat qilgan. Ayniqsa, Sharq va G'arb adabiyoti bir nuqtada kesishgan nuqtalarda so'z ohang, mazmun, ramziylik jihatdan murakkablikni namoyon etdi. Ana shunday murakkab va serqirra nuqtalarda o'z ijod faoliyatini olib borgan, faqat o'zigagina tegishli ijodiy uslub va yo'l yaratgan ijodkorlardan biri Aleksandr Arkadevich Faynberg hisoblanadi. Faynberg ijodiyot yo'li o'zbek nazmining ichki tub ohangini, Sharqona tasavvur va ramziylikni teran his etishi bilan farqlidir. U so'zga oddiy vosita sifati qaramaydi. Uning uchun she'r ruhiy hodisa, ma'naviy mas'uliyat. Shoir nigohida she'riyat insonning ich-ichidan otilib chiqadigan nido, uzoq yillik tajriba hosilasidir. Shuning uchun ham uning aksaryat she'rlari so'zning qudrati, unga mas'uliyat bilan yondashish, she'riyatning mohiyati, ijodkor mas'uliyati to'g'risida bitilgan bo'lib, uning ijodiyotida markaziy mavzulardan sanaladi. Faynberg Sharq she'riyatini mukammal bilgani uning badiiy xususiyatlarini o'zi yozayotgan asarlarga tatbiq qilib noyob uyg'unlik yaratgani ham bor gap. Uning asarlari chuqur ramziyligi va musiqiyligi bilan Sharq adabiyoti durdonalarining o'zgacha fazilatlarini o'zida aks ettiradi. Uning har bir misrasida yuksak ma'naviy izlanishlar, badiiy an'analar jamlangan. Tarjima bu shunchaki matnda bor so'zlarni boshqasi bilan almashtirish emas; bu bir madaniyat ruhini boshqasiga o'tkazish, bir

qalbdagi nafis ohangni boshqa tilda yangratish demakdir. Aynan shunday nozik masalar Faynbergning “Havaskor tarjimonga” she’rida falsafiy-badiiy yo’sinda talqin etiladi. She’r bir qarashda nasihatdek yozilganga o’xshasa-da, uning zamirida teran estetik qarashlar yotibdi. Mazkur asar orqali Faynberg nazmni muqaddas voqea sifatida ko’rsatib beradi. Uning nazarida she’r faqat ichki go’zallik namunasi emas, ruhiy kurash, ichki og’riq, donishmandlik va ma’naviy tajriba mahsuli ham. Uni tarjima qilish esa alohida mas’uliyat va mahoratni talab etadi. Aks holda she’rning ruhi, unda mujassamlashtirilgan ichki ruh, energiya hamda yashirin ma’nolar yo’qolib qolishi mumkin. Shu bois ham “Havaskor tarjimon” she’ri Faynberg ijodida alohida o’rin tutadi. Mazkur maqola Aleksandr Faynbergning “Havaskor tarjimonga” she’ri tahliliga bag’ishlanadi.

Abstract: In the flourishing of Uzbek literature of the 20th century, the creative cooperation of representatives of different nationalities and cultures played an important role. During this process, poetry served not only as an aesthetic tool, but also as a bridge connecting nations with each other. In particular, at the points where Eastern and Western literature intersected at one point, it showed complexity in terms of word tone, content, and symbolism. One of the creators who carried out his creative activity at such complex and multifaceted points, creating a creative style and path that was unique to him, is Alexander Arkadevich Feinberg. Feinberg's creative path is distinguished by his deep feeling for the inner tone of Uzbek poetry, Eastern imagination, and symbolism. He does not consider the word as a simple tool. For him, poetry is a spiritual phenomenon, a spiritual responsibility. In the eyes of a poet, poetry is a cry that bursts from the depths of a person, a product of many years of experience. That is why Most of his poems are about the power of words, a responsible approach to them, the essence of poetry, and creative responsibility, which are considered central themes in his work. It is also said that Feinberg knew Eastern poetry perfectly and applied its artistic features to the works he wrote, creating a unique harmony. His works, with their deep symbolism and musicality, reflect the unique qualities of the masterpieces of Eastern literature. Each of his verses contains high spiritual research and artistic traditions. Translation is not just replacing words in a text with others; This means transferring the spirit of one culture to another, reproducing the delicate melody of one

soul in another language. It is precisely such delicate issues that are interpreted philosophically and artistically in Feinberg's poem "To the Amateur Translator". Although the poem seems to be written as an admonition at first glance, deep aesthetic views lie at its core. Through this work, Feinberg shows poetry as a sacred event. In his opinion, poetry is not only an example of inner beauty, but also a product of spiritual struggle, inner pain, wisdom and spiritual experience. Translating it requires special responsibility and skill. Otherwise, the spirit of the poem, the inner spirit, energy and hidden meanings embodied in it may be lost. Therefore, the poem "The Amateur Translator" occupies a special place in Feinberg's work. This article is an analysis of Alexander Feinberg's poem "To the Amateur Translator".

Аннотация: В расцвете узбекской литературы XX века важную роль сыграло творческое сотрудничество представителей разных национальностей и культур. В этом процессе поэзия служила не только эстетическим инструментом, но и мостом, соединяющим народы. В частности, в точках пересечения восточной и западной литературы она демонстрировала сложность в плане словесного тона, содержания и символики. Одним из творцов, осуществлявших свою творческую деятельность в таких сложных и многогранных точках, создав уникальный для себя стиль и путь, является Александр Аркаевич Файнберг. Творческий путь Файнберга отличается глубоким пониманием внутреннего тона узбекской поэзии, восточного воображения и символики. Он не рассматривает слово как простой инструмент. Для него поэзия — это духовное явление, духовная ответственность. В глазах поэта поэзия — это крик, вырывающийся из глубины души, продукт многолетнего опыта. Именно поэтому большинство его стихотворений посвящены силе слова, ответственному подходу к нему, сущности поэзии и творческой ответственности, которые считаются центральными темами его творчества. Говорят также, что Файнберг прекрасно знал восточную поэзию и применял её художественные особенности в своих произведениях, создавая уникальную гармонию. Его произведения, с их глубоким символизмом и музыкальностью, отражают уникальные качества шедевров восточной литературы. Каждый его стих содержит в себе глубокие духовные

исследования и художественные традиции. Перевод – это не просто замена слов в тексте другими; это перенос духа одной культуры в другую, воспроизведение тонкой мелодии одной души на другом языке. Именно такие тонкие вопросы философски и художественно интерпретируются в стихотворении Файнберга «К переводчику-любителю». Хотя на первый взгляд стихотворение кажется наставлением, в его основе лежат глубокие эстетические взгляды. В этом произведении Файнберг показывает поэзию как священное событие. По его мнению, поэзия – это не только пример внутренней красоты, но и продукт духовной борьбы, внутренней боли, мудрости и духовного опыта. Перевод этого стихотворения требует особой ответственности и мастерства. В противном случае дух стихотворения, его внутренний мир, энергия и скрытые смыслы, заложенные в нём, могут быть утрачены. Поэтому стихотворение «Переводчик-любитель» занимает особое место в творчестве Файнберга. Данная статья посвящена анализу стихотворения Александра Файнберга «Переводчику-любителю».

Kalit so‘zlar: nazm mohiyati, she’riyat falsafasi, so‘z mas’uliyati, tarjima muammosi, havaskorlik tanqidi, Sharq she’riyati, badiiy ramziyat, donishmand ilon obrazi, atirgul va bulbul timsoli, yashirin ma’no, estetik did, ijodkor mas’uliyati, ma’naviy yetuklik, asrlar davomiyligi, so‘z qudrati.

Keywords: the essence of poetry, philosophy of poetry, responsibility of the word, the problem of translation, amateur criticism, Eastern poetry, artistic symbolism, the image of the wise snake, the symbol of the rose and the nightingale, hidden meaning, aesthetic taste, creative responsibility, spiritual maturity, the continuity of centuries, the power of the word.

Ключевые слова: сущность поэзии, философия поэзии, ответственность слова, проблема перевода, любительская критика, восточная поэзия, художественная символика, образ мудрой змеи, символ розы и соловья, скрытый смысл, эстетический вкус, творческая ответственность, духовная зрелость, преемственность веков, сила слова.

Aleksandr Arkadevich Faynberg o'zbek adabiyotining atoqli vakillaridan biri hisoblanadi. Shoir mohir so'z ustasi bo'lib, o'zi yozayotgan asarning har bir so'ziga alohida mas'uliyat va e'tibor bilan yondashgan. Shoirning "Havaskor tarjimonga" sarlavhasi ostida yozgan she'ri ham uning mana shunday qobilyatini o'zida aks ettirgan durdona asarlardan biridir. Unda ijodkor havaskor tarjimon qilar ekan, aslini olganda she'riyatga yengil-yelpi nazar bilan qaraydigan, so'zning qadrini bilmaydigan har qanday kishiga murojaat qiladi. Mzkur asar orqali Faynberg nazmni mo'tabar hodisa sifatida tasvirlaydi. Shu sababdan ham "Havaskor tarjimonga" she'ri shoir ijodida alohida ahamiyat kasb etadi. U shoirning nazm haqidagi estetik qarashlarini, so'zga bo'lgan hurmatini va so'z bilan ishlaydigan ijodkorlarga qo'ygan yuksak talabini namoyish etadi. Asarda she'riyat goh atirgul, goh bulbul, goh donishmand ilon timsolida ta'riflanib, uning go'zalligi bilan birga xavfli, nozik va sirli tabiati ham ochib beriladi. Demak, ushbu she'rni tahlil qilishdan asnosida biz nafaqat tarjima masalasini, balki she'riyatning o'z mohiyatini ham anglash imkoniga ega bo'lamiz. Faynbergning ogohlantirishi shundan iboratki, nazmni sevish oson, undan zavqlanish mumkin, biroq uni chuqur anglash va boshqa tilga o'girish haqiqiy ma'naviy yetuklikni va jasoratni talab etadi.

HAVASKOR TARJIMONGA

Nazm – navo, nazm – iltijo,

Sharqni tinglab nash'a olursan.

Cho'ziladi karvondek hijo,

Chilim kabi tutab yonursan.

Ingrar navo yurakni tilib,

She'riyat bu – donishmand ilon.

Nish uradi atirgul bo'lib,

Bulbul bo'lib sehrlar nolon.

Ash'or go'zal, ash'or maftunkor,

Bekorlarga lol etmagaydir.

Asal va may ichiga bekor

Qilich tig'in berkitmagaydir.

Ovutma o'zingni, shakkar bayt,

Holva bo'lur satrma-satr...

Tog'da bulbul chah-chahlagan payt

She'rda yangrar asrma-asr.

Mag'rur yasha, mardona, mard bo'l,

Umring bo'lsin dunyoga ziynat.

Sharqona bayt atridan mast bo'l,

Tarjimaga qilmagin jur'at.

Ko'rib turganimizdek, asar tarjima sohasiga bag'ishlab yozilgan bo'lsa-da ma'no jihatdan ancha keng. U umuman she'riyatga munosabat, san'atni anglash darajasi va ijodkorlik mas'uliyati haqida so'z yuritadi. She'r boshidan oxirigacha murojaat shaklida yozilgan. Go'yoki ijodkor havaskor tarjimonga nasihat qilayotgandek. Ammo bu pand-nasihat oddiy tanqid emas, balki estetik pozitsiyani anglatish, ogohlantirishdir. She'rda nazm "navo" va "iltijo" deya ta'riflanadi. Bu she'riyatning ikki xil badiiy xususiyatini anglatadi: bir tarafdin u ohang va go'zallik manbai bo'lsa, ikkinchi tarafdin inson qalbidan otilib chiqayotgan hayqiriqdir. Demak, nazm shunchaki yuzaki zavq olish uchun emas to'liq anglash uchun yaratilgan.

Asarda she'riyatning murakkab tabiati turli ramziy timsollar yordamida ochib beriladi. "Donishmand ilon" ramzi she'riyatning don ova sirli, shu bilan bir qatorda ehtiyokorlik talab qiladigan hodisa ekaniga ishora qiladi. Atirgul va bulbul obrazlar esa

go'zallik va nolani,joziba va dardni o'zaro uyg'unlashtiradi.Bu orqali she'rning tashqi nafisligi ortida chuqur ma'no va iztirob yashiringanligi ko'rsatiladi.

She'rning yakunida shoir tarjimaga ‘jur’at qilmaslik” ni maslahat beradi.Bu qat’iyat bilan aytilgan mulohaza,berilgan maslahat tarjimani inkor etish emas,undagi mas’uliyatni ta’kidlash demakdir.Sharqona baytni tarjima qilish nozik atirni boshqa idishga ehtiyot bo’lib quyish demakdir. Agar ehtiyotkorlik bilan harakat qilinmasa,uning hidi so’nishi, g’oyib bo’lishi mumkin. Shoir yosh tarjimomni ogohlantirib aytadiki, she’riyatni anglash uchun avvalambor yetuk ma’naviy saviya va she’riy didga ega bo’lmoqlik lozim.

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki,Aleksandr Arkadevich Faynbergning “Havaskor tarjimonga she’ri so’zning qadr-qimmatini va ijodkor mas’uliyati haqidagi falsafiy qarashlarni o’zida jamlagan asardir.Unda she’riyat go’zallik va og’riq,joziba va haqiqat uyg’unligi sifatida talqin etiladi.Shoir o’quvchini va tarjimomni nazmga hurmat bilan yondashishga,uning ichki sirlari anglashga da’vat etadi.Asarning bosh g’oyasi shundan iboratki,she’r bu oddiy matn emas,balki asrlar mobaynida shakllanib kelgan ma’naviy boylikdir.Uni yaratish ham,tarjima qilish ham chuqur mas’uliyatni va yuksak mahoratni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. www.ziyouz.com — “Aleksandr Faynberg she’riy merosi” rukni ostidagi maqolalar to’plami
2. Alexander. F “Qoramaga qasida”. Tashkent- 2021
3. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>
4. <https://arm.samdchi.uz/library/download/692>
5. Karimova N. Adabiyot va tuyg’u estetiyesi. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2020.
6. <https://arboblarni.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>